

SUN'IY INTELEKT TOMONIDAN YARATILGAN MUALLIFLIK HUQUQI OBYEKTLARIGA NISBATAN SUBYEKTNI BELGILASH MUAMMOLARI

Sheraliyeva Zebiniso Sayfulla qizi
 zebinisosheraliyeva2002@gmail.com
 Toshkent davlat yuridik universiteti
 Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Intellektual mulk va axborot texnologiyalari huquqi mutaxassisligi magistranti.
 +998914619744

E-mail: zebinisosheraliyeva2002@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15640813>

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi texnologik rivojlanib borayotgan zamonda sun'iy intellektning mualliflik huquqi bilan o'zaro aloqasi, sun'iy intellekt tomonidan yaratilayotgan mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan huquq subyektini belgilash va muhofazaga olishda mavjud bir qator muammo va kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan eng dolzarb ilmiy yondashuvlar, normalarning asosli tahlil qilish orqali sohadagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan bir qator nazariy va amaliy takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, muallif, huquqlar.

Annotation: In this article, in the current technologically developing era, the interaction of artificial intelligence with copyright, the most relevant scientific approaches aimed at preventing a number of problems and shortcomings in determining also protecting the subject of rights in relation to copyright objects created by artificial intelligence, a number of theoretical and practical proposals were made to solve the problems in the field through a reasonable analysis of the norms.

Key words: artificial intelligence, author, rights.

Kirish va dolzarbligi.

Sun'iy intellekt jadal rivojlanishi transformatsion texnologiyalarning yangi davrini boshlab berdi, sanoatni qayta belgilab berdi va jamiyat normalarini qayta shakllantirdi deb aytishimiz mumkin. Bir necha o'ng ming yillar davomida bu sohalarda inson omili asosiy o'rinda bo'lgan. Inson shaxs sifatida uning yaratgan ijod asari originallik, kreativlik asosida huquq layoqatlari bilan himoyalab borilgan. Endilikda esa zamon va texnologiyalar asri jadal rivojlanishi oqibatida barchasi tubdan o'zgarishga duch kelmoqda. Hozirgi zamonda sun'iy intellekt (SI) yaratayotgan asarlar ham xuddi inson yaratgan deb aytish imkonini bizga taqdim etmoqda. Lekin bizning huquqiy tizim esa hali duch kelmagan muammolaridan biriga ham ayni shu vaqtda duch keldi deyishimiz ham mumkin bo'lib qolmoqda. Darhaqiqat, sun'iy intellekt (SI) egallamagan hech bir tizim qolmadi. Xususan, marketing sohasini ham tobora egallab bormoqda va yaqin kelajakda ushbu tizimda ham marketologlarga ish qolmasligi haqida taxminlar ham yo'q emas.

Sun'iy intellekt shunday tizimki, unda buyruq berish orqali istalgan harakat amalga oshirilmoqda. Bularidan intellektual mulk obyektlari ham chetda qolgan emas. Xususan, mavzuga aloqador bo'lgan intellektual mulk obyekti bo'lgan asarlarni oladigan bo'lsak, SI buni ham uddalay oladi. Masalan, asarlar sifatida rassomchilik namunalari, musiqa, badiiy va publisistik asarlar hamda turli o'yinlar yaratishni oladigan bo'lsak ham sun'iy intellekt bularni bemalol bajarmoqda. Hattoki, Microsoft asoschisi Bill Geyts Forbes jurnaliga bergan intervyusida sun'iy intellekt bo'yicha OpenAI bilan hamkorlik qilish, sun'iy intellektning mehnat bozori, tibbiyot va boshqa sohalarga ta'siri haqida gapirgan edi. Demak, sun'iy

intellektning yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan insonning yangi dahosi deyish mumkin.

Muallif kim?

Fuqarolik Kodeksi 1046-moddasiga asosan, **muallif kim** degan savolga qonuniy ta'rifni ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu fuqaro asar muallifi deb e'tirof etiladi. Mualliflik huquqi obyektlari bir shaxs tarafidan ham ikki va undan ortiq shaxs tarafidan ham yaratilishi mumkin. Agar asar birgalikdagi mehnat natijasida yaratilsa, hammualliflik yuzaga kelishi mumkin. Fan, adabiyot va san'at asariga mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo'yicha yuzaga keladi. Mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi. Asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, asar muallifi hisoblanadi. Asar imzosiz yoki taxallus ostida chop etilgan taqdirda (muallifning taxallusi uning kim ekanligiga shubha qoldirmaydigan hollar bundan mustasno), asarni chop etgan, asarda ismi yoki nomi ko'rsatilgan noshir, agar boshqa dalillar bo'lmasa, muallifning vakili hisoblanadi hamda muallifning huquqlarini himoya qilish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash huquqiga egadir. Bu qoida bunday asar muallifi o'z shaxsini oshkor etguniga va o'zining muallif ekanligini ma'lum qilguniga qadar amalda bo'ladi¹. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun 10-moddasiga ko'ra esa asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, asar muallifi hisoblanadi². Muallif bu o'z ijodiy faoliyatini asarda namoyish eta olgan shaxsdir. Bu kategoriya eng muhimlaridan biri hisoblanib, huquqlar kimda vujudga kelishini ko'rsatuvchi omilligi sabab ham alohida belgilanishni talab etadi. Muallif uchun hech qanday fuqarolik, til, millat va shunga o'xshash alohida talablar mavjud emas. Faqatgina asarni shaxs o'z ijodiy faoliyati asosida yaratganligi va asar muhofazaga olinishi uchun uni e'lon qilishi yoxud e'lon qilmasada o'ziniki ekanligini ko'rsata olishi yetarlidir.

Muallifga qanday huquqlar tegishli bo'ladi?

Mualliflik huquqida subyektlar huquqlari ikki xil: asl va hosilaviy shaklda bo'ladi. Asarni yaratgan shaxs uning barcha mulkiy, mutlaq va shaxsiy nomulkiy huquqlariga egalik qilsa, keyinchalik obyektни begonalashtirish yo'li bilan hosilaviy tarzda boshqalarga bu huquqlarni haq evaziga oldi-sotdi qila oladi. Subyekt bu o'zida barcha huquqlarni jamlovchi yoki ularni bo'lib beruvchi shaxs hisoblanadi. Faqat mualliflik huquqida bir qoida mavjudki, unga ko'ra, subyektlardan aynan muallif shaxsiy nomulkiy huquqi bo'lgan muallif deb hisoblanuvchi xususiyatni bekor qila olmaydi. Fuqarolik Kodeksi 1033-moddasiga ko'ra, mualliflik huquqi boshqa shaxsga o'tkazilmaydi va berilmaydi. Axir haqiqatan ham bu uning ijodiy fikrlari, uning ifoda shakli va buni boshqaga berish imkonsiz. Birovning fikrlari meniki degan g'alati fikrlar bo'lishi bilan teng.

Yuqorida aytib o'tganimizdek muallif o'z ijod erkinligi asosida yaratganligi sababli ham bu huquqlar doimo unga tegishli hisoblanadi. Shuning uchun ham muallif agarda asarni boshqacha begonalashtirilgan bitim tuzsa ham bu qonuniy tarzda tuzilmagan bitim sifatida o'z-o'zidan haqiqiy emas deb baholanadi. Intellektual faoliyat natijasi muallifining shaxsiy nomulkiy huquqi — bu mulkiy mazmunga ega bo'lmagan, ob'ekt yaratuvchisini ijodiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/-180552> (kirish vaqti: 13.03.2024)

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.07.2006 yildagi O'RQ-42-son <https://lex.uz/ru/docs/-1022944> (kirish vaqti: 13.03.2024)

maqomini belgilovchi va ushbu maqomdan kelib chiqadigan huquqlarni mustahkamlashga va himoya qilishga qaratilgan mutloq huquqlari bo'lib, u faqat huquq egasiga tegishli va huquq egasidan begonalashtirilishi mumkin emas³.

Mualliflik huquqi obyektlariga mulkiy, mutlaq va shaxsiy nomulkiy huquqlar beriladi. Fuqarolik Kodeksi 1033-moddasiga ko'ra, intellektual faoliyat natijalarining mualliflari ana shu natijalarga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'ladilar. Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar, tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda uning o'zida saqlanib qoladi⁴. Shaxsiy huquqlar doimo muallifga tegishli bo'ladi. Bu huquqlarni begonalashtirish yoxud boshqaga berish imkonsizdir.

Muallifni mulkiy huquqlari mazmuni intellektual faoliyat natijalaridan uning o'zi tomondan foydalanishi, foydalanish huquqini haq asosida o'tkazish yoki haq asosida foydalanishga ruxsat berish yoki o'z huquqlarini boshqa shaxslarga haq asosida berish vakolatlarida namoyon bo'ladi⁵. Fuqarolik Kodeksi 1056-moddasiga asosan, muallifga asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlar tegishlidir. Yuridik va jismoniy shaxslar, ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda ko'rsatilganidan tashqari hollarda, asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan, shu jumladan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan yoxud ular bo'lmagan taqdirda, bu tashkilotlarning vazifalari va majburiyatlarini bajaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin⁶. Shuningdek, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun 19-moddasida mulkiy huquqlar tavsifi mavjud hamda asarni takrorlash, sotish, nusxalarini yaratish, tarqatish, omma oldida ijro etish va boshqa huquqlar mulkiy huquq sirasiga kirishi hamda bu huquqlar boshqa shaxslarga o'tkazilishi litsenziya asosida bo'lishi keltiriladi. Mutlaq huquq mualliflik huquqining shunday tarkibiy qismiki, unga ko'ra asarni takrorlash, unga o'zgartirish kiritish kabi qismlarini ham o'z ichiga olib, qisman yoki butunlay begonalashtirilish xususiyatiga ega.

Sun'iy intellektni muallif deb hisoblash mumkinmi?

Ayrim olimlar sun'iy intellektning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etishmoqda. O.Oqyulov uni subyekt sifatida emas, balki huquq obyekti deb hisoblaydi, chunki sun'iy intellektning o'z irodasi, manfaati va mustaqil ongi yo'q⁷. Ronal Chandra va Yoga Priastomo ta'kidlashicha, sun'iy intellektni aqlli ishlaydigan kompyuter dasturlarini o'rganish va ishlab chiqish sohasi deb hisoblash mumkin, bu ko'p jihatdan kompyuter dasturlashning yakuniy maqsadidir⁸. I.V.Ponkin va A.I.Redkina sun'iy intellekt o'z xatti-harakatini o'z-o'zidan moslashtirish, avtonom tarzda o'z-o'zini chuqur o'rganish (ma'lum bir sinf yoki undan kengroq muammolarni hal qilish), o'zini

3 Ў-32 Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарх: Илмий шарҳлар. Т 3./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Vaktria press, 2013. 800 б.

4 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/-180552> (kirish vaqti: 13.03.2024)

5 Ў-32 Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарх: Илмий шарҳлар. Т 3./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Vaktria press, 2013. 800 б.

6 O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/-180552> (kirish vaqti: 13.03.2024)

7 Окулов О. Правовой статус интеллектуальной собственности. Т.: ТГЮИ, Дисс. на соис. уч.степ. докт.юр.наук. 2000. С.14,36.

8 Chandra R., Prihastomo Y. Artificial Intelligence Definition: A Review //<<https://pdfs.semanticscholar.org/d959> –3 p. – P.1.

va uning quyi tizimlarini yoshartirish qobiliyatiga ega, deb hisoblashadi⁹.

Maria Diazning fikricha, sun'iy intellekt inson ishtirokisiz mustaqil ravishda asar yaratish qobiliyatiga ega emasligi sababli sun'iy intellekt muallif deb ko'rilmaydi¹⁰. S.Gulyamov va S.Bozarovlar bu borada o'ziga xos yondashuvni nazarda tutadi. Ularning fikricha, sun'iy intellekt inson huquqlarini himoya qilishda yordamlashadi, biroq xavfsizlik va shaffoflik bo'yicha yagona talablarni belgilovchi mustahkam huquqiy asosga tayanish zarur¹¹. Ya'ni bu bilan xavfsizlikda kamchilik borligi va sun'iy intellektda mualliflik belgilari mavjudligi haqida gapirishadi. I.Rustambekov esa, internetdagi fuqarolik-huquqiy munosabatning o'ziga xosligini bevosita virtual muhit bilan bog'liqlikda ifodalaydi¹². Bular shuni ko'rsatadiki, mualliflik huquqi sun'iy intellektni muallif deya tan olish ham tan olmaslik ham mavjud. Bu ochiqlik esa intellekt bozorida tortishuvlar, nizolarga sabab bo'lmoqda. Lekin sun'iy intellekt ijodiylik va kreativlik asosida original asar yarat oloyotganligiga bugungi kunda guvohimiz va har bir asari xuddi shaxs yaratgani kabidir.

Insonda ham bolalikdan har bir narsani ko'rish, tushunish, his qilish, nutqni aniqlash kabi insoniy sifatlar orqali neyron tizimlari shakllanib boradi. Sun'iy intellektda esa bular alohida yacheykalarda alohida murakkab algoritmik sistema sifatida joylashtiriladi. Sun'iy intellekt ham har bir buyruqni tanib olish orqali bajaradi. Uning ma'lumotlar bazasiga kiritilgan bilimlar, so'zlarni buyruq beruvchi shaxs unga berganda u bazasidagi bilimlar asosida uni tanib oladi va unga javob berishi funksiyasini ishga tushiradi. Sun'iy intellekt bazasiga so'zlar kiritiladi va ular maxsus sistema orqali ishga tushirilganda so'zlarni tanish, ularni birlashtirish kabi murakkab algoritmik hodisani amalga oshiradi. Shu orqali sun'iy neyron orqali intellekt original, kreativ asar yaratadi va jarayon sun'iy ekanligi sababli ham sun'iy intellektni subyekt deb baholashda muammolar bor.

Shu mulohazalar jihatidan o'ylab qarajak, huquqlarni barchasiga birdek berish va muallif sifatida sun'iy intellektni ham istisno tarzida qabul qilish davri yetib kelgandir. U inson ongli ravishda o'ziga taqlid qiluvchi qilib yaratgan intellekti. U ong va aql. Bilimi tayangan va undan tashqiriga hozircha chiqa olmaydigan nisbiy subyekt. Zamon o'zgarib, o'tib borgani sayin yangi subyektlarni (garchi biz uni qabul qilish va subyekt deb atashga o'rganmagan bo'lsakda) qonunchilik tizimiga qo'shishimiz lozim bo'lib bormoqda. Huquqlar himoyasi sifatida esa sun'iy intellektda sug'urtalash, foydalanuvchilar uchun pullik qilish va ularni hammuallif sifatida ko'rish kabi yangi tizimlarni ishlab chiqishimiz ham mumkin.

Sun'iy intellekt asarlariga hammualliflikni belgilash

Mualliflik huquqi (intellektual faoliyat natijasining muallifi deb e'tirof etilishi huquqi) shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi¹³. Shaxsda ijod erkinligi bo'lishi zarur, ammo sun'iy intellekt faqatgina buyruqqa javob beradi. Muallif sifatida doimo shaxs tan olingan. Subyekt

9 Понкин И.В., Редькина А.И. Искусственный интеллект и право интеллектуальной собственности // Интеллектуальная собственность. авторское право и смежные права. – 2018. – № 2. – С. 35–44. – С. 37–38.

10 Maria Diaz “Artificial Intelligence and Copyright” retrieved from <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=ab3340fa-57e5-4145-afe9-110b088c9e36>

11 Gulyamov S., Bozarov S. Strategies future prospects of artificial intelligence: world experience. <https://wwwscholarexpress.netVolume-9April-2022.66-74-6>.

12 Рустамбеков И.Р. Интернет тармоғида фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиш: юрид. фан. докт. дис. ... автореф. –Тошкент: 2017. –13 б.

13 Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 882 bet

hammualliflik bilan ham yuzaga kelishi mumkin. Bunda hammuallifda barcha ishtirokchining ham hissasi va ijodiyligi talab etiladi. Mualliflik huquqida eng muhim subyektlar sirasiga hammualliflikni kiritish mumkin. Qonunning 12-moddasida ham keltirib o'tilgan bo'lib, hammualliflik uchun ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikdagi ijodiy faoliyati zarur bo'ladi. Mualliflik huquqida obyekt shaxsning ijodiy faoliyatiga va ifodaga shakliga asoslangani uchun ham hammualliflarda ikkalasining ham ijodiyligi va asarda matnda ikkovining ham ichki kechinma va xarakteristikasi bo'lishi lozim. Hammualliflikning quyidagi belgilari mavjud: a) ikki yoki undan ortiq shaxslarning birgalikdagi ijodiy mehnati; b) bunday birgalikdagi faoliyat natijasida vujudga kelgan asarga nisbatan mualliflik huquqining bunday faoliyatda ishtirok etgan barcha shaxslarga taalluqli ekanligi; v) jamoa asarining yaratilganligi¹⁴. Hammuallif har biri asarni yaratishda qaysidir jihatdan intellektual faoliyat bilan shug'ullanishi lozim bo'ladi. Hammualliflardan har birining ishtirok etish ulushi, xarakteri, hajmi ushbu modda doirasidan tashqarida qoladi: eng muhimi ular birgalikda intellektual faoliyat bilan shug'ullanganliklari, ijodiy mehnat qilganliklari va buning natijasida asar yaratilganligi faktidir¹⁵. Hammualliflikni boshqa shaxslarning ishtirokidan to'laligicha farqlay olishimiz lozim. Masalan, asar yaratilishda qatnashgan matn teruvchi, bosmalash ishlari bilan shug'ullanuvchi, texnik xodimlar, tarjimonlar va hokazolar. Ular asarda intellektini qo'shib, biron qismini yozmagan yokida g'oya jihatdan ishtirok etmagan.

Hammualliflikni sun'iy intellekt asarlariga taqdim etadigan bo'lsak, sun'iy intellekt, dasturchi va foydalanuvchining har birida ushbu ijodkorlik mavjudligi haqidagi g'oyani yuqoridagi bo'limlarda ham keltirib o'tmoqdamiz. Huquqlar borasida esa, tabiiyki, sun'iy intellekt bilan alohida kelishib olishning imkoni yo'q. Shu sababli saytdan foydalanuvchiga alohida to'lov joriy qilish hamda shu orqali yaratilgan asarda uni hammuallif deya tan olish imkoni berish ham asosli fikrlardan biri bo'lar edi. Shunda sun'iy intellekt va dasturchi huquqlarni kelishib olish yuzasidan shartnoma ishlab chiqishsa, to'lovdan so'ng shartnomaga rozilik orqali (bu elektron bitim bo'ladi) asar yaratilish imkoni yuzaga kelishi mumkin. Hammualliflarda huquqni himoya qilishni ham mualliflarning jonli qismiga qoldiramiz. Sun'iy intellekt sun'iy ishlab chiqilganligi sababli ham uning huquqlarini nisbatan berish adolatli, qonuniy va mantiqli bo'ladi deb hisoblayman.

Xulosa

Ko'rinib turganidek, har kimda turli asoslar va fikrlar mavjud va bu asosda har bir davlat o'z huquqiy tizimini ishlab chiqishi ham lozim hisoblanadi. Har bir sohada bo'lgani kabi sun'iy intellektda ham huquq buzilishi holatlari ro'y beradi va bunda javobgarlikni yuklash uchun intellektual mulk obyektiga xos huquqlar bilan uning subyektini ham ta'minlab qo'yish joiz bo'ladi. Sun'iy intellekt ham quyida ko'rib chiqamizki, buyruq asosida harakat qilar ekan shu asosda o'zida bazasida buyruqni qayta shakllantirib, zaxira sifatida qayta ishlab chiqadi va keyingi buyruqlarda mukammal foydalanishgacha olib bora oladi. Buni tushuntiradigan bo'lsak, u bazaga kiritilgandan tashqari, berilgan buyruqlarni eslab qoladi, qayta sintez asosida o'zida saqlab keyingi shunga o'xshash vaziyatda foydalanadi. Shuningdek, har bir yaratgan asari originallik darajasida yuqori turadi va buni birgina Rembrand asarining bahosidan ham bilib

14 Fuqarolik huquqi. Q.II/M. Abdusalomov, X. Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. 650-b.

15 Ў-32 Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Илмий шарҳлар. Т 3./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013. 800 б.

olamiz. Shunday ekan, sun'iy intellektga ham qaysidir jihatdan huquqlar berish yoxud huquq buzilishi oldini olish uchun uni subyekt sifatida ko'rishimiz dolzarb bo'lib bormoqda. Huquq egasi sifatida sun'iy intellektni ko'ramizmi, uni yaratuvchisini yoki buyruq bergan shaxsnimi? Ushbu savollarga javob berish orqali sun'iy intellekt yaratgan asarlar himoyasi kimga tegishli ekanligi va qanday huquqlari borligi hamda qanday ularni himoya qila olishini ko'rib chiqamiz. Shunda muallif huquqi buzilishini ham oldini olgan bo'lamiz va bu uchun huquqiy tartibga solish lozim bo'ladi. Sun'iy intellektning ahamiyati ortib borayotganini inobatga olgan holda, u bilan boliq masalalarni huquqiy tartibga solish kelgusi yillarda ham milliy, ham xalqaro miqyosda kun tartibida bo'ladi.

Demak, yuqoridagi va butun muhokamalarimizdan kelib chiqib quyidagicha takliflarni keltirib o'tamiz:

1. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan asarlarga mualliflik huquqini berish mumkin. Bunda SI asarlarini hammualliflik asari deb baholashni taklif etaman. Chunki originallik va ijodkorlikni inkor qilolmaymiz. Bunda huquq egalari bir xil huquq va mavqeda bo'lishadi. Dasturchi, sun'iy intellekt va foydalanuvchi yaratgan asarlari uchun birgalikda teng huquqli. Sun'iy intellekt nomidan uning mulkiy huquqlari kimda bo'lsa, shu taraf qatnashadi. Shuningdek, agar dasturchi sun'iy intellektidagi huquqlarni begonalashtirgan bo'lsa, mulkiy va mutlaq huquqlar egasi kim bo'lsa, sun'iy intellektning yaratgan asarlari mualliflik huquqi (mulkiy, nomulkiy, mutlaq)ni o'sha subyekt himoyalaydi. Bu sun'iy intellektning benefitsiari hisoblanadi. Muallif uch shaxs, ya'ni SI yaratuvchisi, foydalanuvchi va SIning o'zi hisoblanib, huquq himoyasida intellekt nomidan benefitsiar qatnashishini bildiradi;
2. Hammualliflik yanada qonuniy bo'lishi uchun sun'iy intellekt bo'yicha huquqlar egasi foydalanuvchiga elektron shartnoma taqdim etadi va unda huquqlar masalasi yoziladi. Shu asosda rozilik mavjud bo'lsa, ofertani qabul qilib, to'lov o'tkazadi. Bu to'lov oradagi ishonchni, xizmatning xavfsiz bo'lishini ta'minlaydi.
3. Sun'iy intellektdan foydalanilganda shaxsni identifikatsiya qilish shartnomada taraflar ma'lumotlarini kiritishga ham yordam beradi.

Xulosada yechim sifatida taklif keltirar ekanmiz bunda originallikdan va kreativlikdan uzoqlashib bo'lmasligi, aksinchada mualliflik huquqsiz asarlar ko'payishi va tatbiq etish doirasi zamon talablari asosida kengayishini hisobga oldik.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 21.12.1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
2. 29.08.1996-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
3. 20.07.2006-yildagi O'RQ-42-son "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun.
4. Gulyamov S., Bozarov S. Strategies future prospects of artificial intelligence: world experience.
5. Окюлов О. Правовой статус интеллектуальной собственности. Т.: ТГЮИ, Дисс.на соис. уч.степ. докт.юр.наук. 2000.
6. Рустамбеков И.Р. Интернет тармоғида фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни

тартибга солиш: юрид. фан. докт. дис. ... автореф. –Тошкент: 2017. –13 б.

7. S.S.Bozarovning “Sun’iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik” nomli dissertatsiyasi,
8. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.Oqyulovning umumiy taliriri ostida. - T.: TDYU nashriyoti. 2017.
9. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Илмий шарҳлар. Т 3./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013. 800 б.
10. Понкин И.В., Редькина А.И. Искусственный интеллект и право интеллектуальной собственности // Интеллектуальная собственность. авторское право и смежные права. – 2018. – № 2. – С. 35–44. – С. 37–38.
11. Морхат П.М. Правосубъектность искусственного интеллекта в сфере права интеллектуальной собственности: гражданско-правовые проблемы. Диссертация на соискание учёной степени доктора юридических наук. Москва, 2018.
12. Бозоров С. Sun’iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 48-56.
13. www.lex.uz
14. www.norma.uz
15. <https://darakchi.uz/oz/119196>
16. <https://kun.uz>